

*S.M. Axmadaliyeva, oqituvchi ,*

*QDPI, Qoqon*

Chet tillardan so‘z o‘zlashtirish, ona tiliga yangi tushunchalar bilan birga bu tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning ham kirib kelishi tabiiy jarayon sanaladi. Taraqqiyot, rivojlanish, import qilinadigan iste’mol mahsulotlarining paydo bo‘lishi bu mahsulotlarning nomi, ya’ni pragmatonimlarning ham kirib kelishiga, nomlar migratsiyasiga turtki bo‘ladi.

Nomlar migratsiyasi – biror tilga mansub nomlarning mahalliy tilga yoki chet tillarga o‘zlashishi, kirib borishi<sup>1</sup>dir. Nomlar migratsiyasi sifatida chet tillardan atoqli otlarning kirib kelishini tushunar ekanmiz, pragmatonimlarning ham o‘zbek tiliga kirib kelishi nomlar migratsiyasiga misol bo‘ladi.

Dunyoga mashhur brendlар O‘zbekistonda faoliyat yuritar ekanlar yoxud bunday mahsulotlar yurtimizga import qilinar ekan, tabiiyki, brend nomi va boshqa elementlari ham kirib keladi. Aynan bunday nomlarning imlosi ham ahamiyatlidir.

Mashhur brend nomlari asl tilda qanday berilgan bo‘lsa, shunday yozilishi shart. Agar mahsulot nomidagi biror harf yoki belgi o‘zgaradigan bo‘lsa, mahsulotning originalligi, haqiqiyligiga shubha paydo bo‘ladi. Chunki aynan kontrafakt (soxta) mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot va brend nomidagi biror harf yoki belgini o‘zgartirib, o‘z mahsulotlarini farqlashga intiladilar. Quyida ayrim misollarni keltirib o‘tamiz.

Adidas firmasi sport kiyimlari ishlab chiqaruvchi mashhur brend hisoblanadi. Kompaniya nomining mashhurligidan boshqa korxonalar ham o‘z maqsadlarida foydalanib, bir yoki bir nechta harflarni o‘zgartirib sport kiyimlari ishlab chiqaradilar .

Keltirilgan suratda kontrafakt – soxta mahsulotlarning nomi keltirilgan.

<sup>1</sup> Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. –Наманган, 2006. –Б.52.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Shu sababli ham original brend nomi imlosida xatolikka yo‘l qo‘yish mahsulotning obro‘siga putur yetkazishi, noqonuniy hodisa sifatida qaralishga asos bo‘lishi mumkin.

Yana bir masala brend nomlarining qaysi alifboda berilishi masalasi hamdir. Lotin alifbosida berilgan nomni kirill, kirill alifbosida berilgan nomni lotin alifbosida berish mumkin emas. Bunda ham yuqoridagi hodisa – intellektual mulk huquqlari buzilishi kuzatilishi mumkin /

Demak, chet tilidan o‘zlashgan brend nomlari imlosida e’tiborli bo‘lish, brend nomi qanday berilgan bo‘lsa, shunday ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda yana bir masalaga e’tibor qaratish zarur. Hozirgi kunda keng jamoatchilikni o‘ylantirayotgan bir muammo bor. U ham bo‘lsa, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga o‘zbekcha nom berish. Butun dunyoga mashhur brend nomlariga bu talabni qo‘yib bo‘lmaydi. Chet el brendlari nomini o‘zgartirishga, o‘zbekchallashtirishga haqqimiz, imkonimiz yo‘q. Lekin yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga o‘zbek tilida nom tanlash, o‘zbekcha nom berish imkoniyatimiz mavjud. Shunga qaramay, bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga nom tanlashda chet tillarga oid so‘zlardan foydalanish ko‘p uchraydi.

Tilning rivojlanishiga (boyishiga) shevalardan, o‘zga tillardan so‘z olish, yangi so‘zlarni yasash orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, ayni paytda, bunday rivojlanish jarayoni tilga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Tarixdan ma’lumki, dunyoda qanchadan-qancha tillar paydo bo‘lib, qanchadan-qancha tillar o‘lik tilga aylandi. Bunga sabab esa tilning me’yoriy qoidalariga amal qilmaslik, til ekologiyasiga e’tiborsizlikdir<sup>2</sup>. Chindan ham, o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish bir vaqtning o‘zida ham ijobiy, ham salbiy tendensiya hisoblanadi. Bunda ham ma’lum me’yorlarga amal qilish talab qilinadi.

R.Davlatova bugungi kunda obyektlarga qo‘yilayotgan nomlar haqida o‘z fikrini bildirib, “obyekt nomlarini tanlashda qo‘yiladigan atoqli otlarning

<sup>2</sup> Кўлдошев Н. Экологистика: ўзбек тилида тил ва нутқ софлигининг лингвокультурологик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. автореф. –Фарғона, 2021. –Б.14  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ishoraviylik vazifasini e'tiborga olish muhim omillardan sanaishi<sup>3</sup>ni ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, "mazkur birliklar jamiyat a'zolari o'rtasida obyekt to'g'risidagi yaxshigina reklama vazifasini bajarishi mumkin. Shuningdek, nom tanlashda o'zbek tiliga xos so'zlardan foydalanish millatimiz o'zligini, ma'naviyatini ko'z-ko'z qilish uchun olg'a qo'yilgan bir qadam, deyish mumkin. Negaki atrofimizda nom tanlashda negadir chet so'zlardan foydalanishga ko'proq urg'u berilishini kuzatish mumkin. Ko'chalarimizda tez-tez ko'zimiz tushadigan ayollar go'zallik maishiy-xizmat xonalari peshtoqiga ilingan "Miss Kleopatra", "Miss Safina" nomlari o'rniga "Mohlaroyim", "Mohidavron", "Sumbul sochlari" yoki turli ovqatlanish obyektlariga qo'yilgan "The one", "Mister Kebab", "Grill" nomlari o'rniga "Kabobmisan kabob!", "Luqmayi halol", "Do'mboq jo'jalar" kabi mijoz diqqatini tortuvchi bejirim, o'zbekona nomlar qo'yilsa qanday chiroyli!

Zero, Vatanimizda asos solinayotgan obyektning peshtoqiga o'zligimizdan g'ururlanib o'zbek tilidagi nomni ilsak, nur ustiga, a'lo nur bo'lardi, nazarimizda<sup>3</sup>. Tilshunos olimlarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, xuddi shunday jarayon mahsulotlarni nomlashda ham ko'zga tashlanmoqda.

Fikrimizning ijobiy misol bilan boshlagan holda, masalaga o'z munosabatimizni bildirib o'tamiz. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar "RAVON" brendi ostida ishlab chiqarilmoqda va chet mamlakatlarga eksport qilinmoqda. "RAVON" brendining Moskvadagi taqdimotida "UzAUTOSANOAT" brend nomining qisqartma so'z ekanligini, «Reliable Active Vehicle On Road» – "yo'lda ishonchli, faol avtomobil" ma'nosini anglatishini ma'lum qilganlar. Shuningdek, ushbu so'z o'zbek tilidagi *ravon* so'zi ma'nosiga ham mos keladi. "RAVON" nomi yo'llarda ravon yuruvchi mashinani ishlab chiqarishni ko'zda tutgani nomdan ko'zga tashlanadi. Aytish mumkinki, brend nomi muvaffaqiyatli tanlangan, nom va mahsulot

<sup>3</sup> Давлатова Р. Ўзбек тилида номларнинг прагматик табиати. «Scientific progress» Scientific JournalISSN: 2181-1601 //Volume: 1, ISSUE: 1. –Б.104-105.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

maqsadi, faoliyat doirasi bir-biriga mos keladi. Nomda ingliz tilida qisqartma va o‘zbek tilidagi milliy so‘z uyg‘unligi aks etgan, ham milliylik, ham globallik xususiyatlari muvaffaqiyatli integratsiya qilingan.

Yuqoridagi ijobiy, muvaffaqiyatli tanlangan nomlar bilan bir qatorda, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda chet tillardan o‘zlashgan, nom va mahsulot turi bir-biriga mos kelmaydigan holatlar ham ko‘zga tashlanadi. Bolalar shirinliklaridan birining nomi “Kapitan Miller” deb nomlanadi. Bunda, bizningcha, bolalar pretsedent nom (sevimli ertak yoki multfilm qahramoni nomi) orqali shirinlikka qiziqish bildirishi maqsadi ko‘zda tutilgan. Lekin shu nomni o‘zbekchalishtirish, o‘zbekcha ertak qahramonlari nomidan foydalanish ham mumkin edi, aslida.

Bizningcha, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomini milliylashtirish, shuningdek, milliy nomlarning ham uslubiy, orfografik xususiyatlariga e’tibor qaratish zarur. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir nom o‘zbek tilining obro‘sini oshirish, dovrug‘ini taratish uchun ma’lum ma’noda xizmat qiladi. Mahsulotning muvaffaqiyati o‘zbekcha nomning ham muvaffaqiyatini ta’minlaydi va aksincha, nomning muvaffaqiyati mahsulotning ham tez mashhur bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro brendlarni o‘zbekchalishtirmasak ham, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomlarining to‘g‘ri, xatosiz, lisoniy me’yorlarga mos tarzda, uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor qaratish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

- 1.Абдуллаев Б. Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. – Андижон, 2020, –142 б.
- 2.Ахтямов А. Реклама матнларининг ўзбек, рус ва немис тиллари мисолидаги прагмалингвистик таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

доктори (PhD) дисс. автореф. –Фарғона, 2022.

3.Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи.  
Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. –Фарғона, 2022. –150 б.